

6.10. Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlari "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlari qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarining O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining communal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi" larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsent miqdor tartibida hisoblanadi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznomaga to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi" ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomaga "Iste'molchi" ni to'lov talabnomasi va hujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

#### VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida Qoidalar va shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar kelishuv yo'lli bilan hal qilinmagan taqdirda, nizolar Samarqand shahari iqtisodiy sudi yoki Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida ko'rib chiqiladi.

#### VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosis ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

#### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va xar bir tarafda bir nusxadan saqlanadi. Shartnoma taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

9.2. Shartnoma imzolangan sanadan boshlab bir yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi va taraflarning birortasi shartnomani bekor qilish haqida yozma ravishda murojaat qilmasa, keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

9.2.1. Ushbu shartnoma II guruh iste'molchilar (budget tashkilotlari) uchun G'aznachilik organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-soni Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yhatga olingen kundan boshlab kuchga kiradi. Budjetdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-soni bilan ruyxatga olingen "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining G'azna ijrosi koidalari" ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.

9.3. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan barcha masalalarning hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyulidagi 194-soni Qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalari" ga amal qilishadi.

#### X. Tomonlarning manzil va rekvizitlari:

##### "Ta'minotchi"

«Samarqand suv ta'minoti» MCHJ

Samarqand sh., O'zbekiston ko'chasi 114 A uy,

Tel/faks: 66-2370408

h/r-22638000800307743396

ATIB "Ipoteka banki"

Samarqand viloyat filiali

MFO 00312, STIR 200613125, XXTUT 90213

[www.suvkova.uz](http://www.suvkova.uz)

M.O.



##### "Iste'molchi"

Республика Озбекистан  
Министерство транспорта и связи  
manzil: Садр. лл. А. Навои 58  
h/r: 1000 218601 84017098300239001  
MFO 00014 STIR 30309246/  
e-mail:

А.Ф.Бородин

tel:



Юридан А.Ф.Бородин

#### Yuridik xulosha:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq keladi.

АЗИМ ХАСАНОВ  
ЮРИСКОНСУЛЬТ.  
Nokta №004836 ot 26.02.2016r.